

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Каримов

Философия калама –рациональная основа средневекового исламского
мировоззрения..... 203

D.E.Normatova

Islom islohhiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar..... 210

B.E.Xusanov

Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili..... 215

N.M.Axmadiyev

Yoshlarning axloqiy, ma'rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda keksa avlod tajribasidan
foydanishning ahamiyati..... 220

N.N.Teshayev

Fuqarolik jamiyatni rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari 223

K.G'.Kamolova

Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o'rni 227

M.M.Qaxxorova, B.Farfiev

Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari..... 232

K.U.Sharipova

Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni..... 240

S.A.Xayrullayev

Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari..... 244

O'.X.Rajabov

Maslahat – konsensusning sinergetik omili 248

Sh.T.Abbosova

Milliy g'oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch 251

SIYOSAT**K.X.Avazov**

Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining
mazmun-mohiyati..... 254

A.A.Abdilxamedov

Huquqbazarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati..... 261

B.Y.Paluaniyazov

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahidlarning namoyon bo'lish
xususiyatlari..... 265

U.M.Kuranov

Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma'nnaviy – ma'rifiy ahamiyati 270

ТАРИХ**Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov,****K.D.Arziyev**

O'zbekistonning Samarcand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv
ishlari hisoboti..... 275

М.Х.Исамиддинов

Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития..... 309

X.Raxmatillayev

Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar 314

F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G'.Rahmatova

Mustaqillik yillarida Buxoro to'qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari 318

N.S.Abdullayeva

Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O'zbekiston madaniy merosi namunalari..... 324

S.B.Xakimova

"Xulosat ul-ahvol" asari xususida..... 329

Ш.Т.Темиров

Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное
наследие 332

OILA INSTITUTI MUSTAHKAMILGINING IJTIMOIY-MADANIY ASOSLARI

СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ПРОЧНОСТИ ИНСТИТУТА СЕМЬИ

SOCIOCULTURAL FOUNDATIONS OF THE STRENGTH OF THE FAMILY INSTITUTION

Qaxxorova Matlyuba Mannofovna¹

¹O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori, falsafa fanlari doktori

Farfiev Bahrom²

²O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi professori v.b., sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Oila sotsial institutlar orasida eng qadimiysi hisoblanib, uning barqarorligi esa hamisha dolzarb ijtimoiy masala sifatida tadqiq etib keltingan. Ijtimoiy fanlarda mazkur masala ham nazariy, ham amaliy jihatlarda o'rganiladi. Ilmiy maqolada islom dini qadriyatlarning oila instituti mustahkamligini ta'minlashdagi ahamiyati, oila na nikoh institutlarining o'zaro munosabatlari tahsil etilgan.

Аннотация

Семья считается древнейшим среди социальных институтов, а ее устойчивость всегда изучалась как актуальная социальная проблема. В социальных науках этот вопрос изучается как в теоретическом, так и в практическом аспектах. В научной статье анализируется значение исламских религиозных ценностей в обеспечении стабильности института семьи, взаимоотношений между институтами семьи и брака.

Abstract

The family is considered the oldest among social institutions, and its stability has always been studied as an urgent social issue. In social sciences, this issue is studied in both theoretical and practical aspects. The scientific article analyzes the importance of Islamic religious values in ensuring the stability of the family institution, and the mutual relations between family and marriage institutions.

Kalit so'zlar: oila, islom, sotsial institutlar, barqarorlik, nikoh, monogamik va poligamik nikohlar, qadriyat.

Ключевые слова: семья, ислам, социальные институты, стабильность, брак, моногамные и полигамные браки, ценности.

Key words: family, Islam, social institutions, stability, marriage, monogamous and polygamous marriages, value.

KIRISH

Yangi ma'nnaviy makon yaratish, Yangi O'zbekiston axloqiy qiyofasi rivojida oila va nikoh munosabatlarining o'rni muhim. Oila – hayot abadiyligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi qadriyatlar beshigi, kelajak nasllar uchun betakror tarbiya maskani bo'lganligi bois ham u azaldan xalq tomonidan benihoya e'zozlanib kelgan. Zero, xalqning, millatning kelajagi aynan oila bilan chambarchas bog'liq. Oila o'ziga xos ijtimoiy birlashma, uning bu xususiyati uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligi hamda ijtimoiy vazifalarida o'z ifodasini topadi.

Mamlakatimizda oila-nikoh instituti mustahkamligi va farovonligini ta'minlash, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib qilish, sog'lom, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash hamisha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. "Insonga insonparvarlik, yaxshi xulq, ta'llimtarbiya va umuman, ijobiy xislatlarni o'rgatuvchi muktab bu - oiladir. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", - degan maqol bor. Tarbiya - oiladan boshlanadi, desak xato qilmaymiz. Biz bunda sog'lom, yetuk, komillik sari intiladigan oilani nazarda tutyapmiz. Oila qancha sog'lom bo'lsa, jamiyat ham shunga mutanosib bo'ladi" [1.72.]. Shu boisdan ham, mamlakatimizda barcha xayrli ishlar, ezgu amallar, avvalo, oilalarning farovonligini, totuvligini mustahkamlash, har tomonloma, sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish hamda ularning yorug' kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirib kelinmoqda. Zero, oilada shakllangan sog'lom ma'nnaviy muhit farovon turmush, osuda hayot tarzimizning mustahkam poydevoridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy sotsiologik adabiyotlarda sotsial institutlar bajarayotgan funktsiyalariga qarab tasniflanar ekan, bunda avvalo oila institutining ahamiyatiga asosiy e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Chunki u boshqa sotsial institutlar ichida eng ko'hnalaridan biri hisoblanadi. Belarussiyalik sotsiolog S.N. Burovaning e'tiroficha, «oila va nikoh insoniyatning eng ko'hna birligi, kishilar ijtimoiy hayotining

FALSAFA

eng azalgi shaklidir. Oila sinflar, millatlar va davlatdan oldin, insoniyatning yerdagi hayotining «boshanish tongida» vujudga keldi. Aynan unda insonlar turmushining asrdan asrgacha takrorlanib turishi, odamzod naslining davom etishi, yangi avlodning ijtimoiylashuvi, biologik va sotsial ehtiyojlarning qondirilishi kabi hodisalar sodir bo‘ladi»[2.25.].

G‘arb sotsiologiyasida ham oilaga turli-tuman ta’riflar berilgan bo‘lib, shularning ichida taniqli amerikalik sotsiolog N.Smelzer tomonidan ishlab chiqilgan ta’rif o‘zining oddiy, konkret va tushunarli darajasi bilan ajralib turadi. «Oila – bu kishilarning qon-qarindoshlikka, nikoh yoki farzandlarni voyaga yetkazishga asoslanadigan birlashmasi bo‘lib, ular turmushlarining umumiyligi va farzandlar tarbiyasi uchun o‘zaro ma’suliyatni o‘z zimmalariga olgan bo‘ladilar. Odatda oila a’zolari yagona uyda istiqomat qiladilar»[3.400.].

Oilaviy munosabatlarning dastlabki asosi nikoh timsolida shakllanadi. Nikoh erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy, o‘zgaruvchi shakli bo‘lib, huquq va majburiyatlar o‘rnatalishi vositachiligidagi er-xotinning kundalik va ijtimoiy hayotlari tartiblanadi. Biroq, oila nikohdan farqi o‘laroq murakkab munosabatlarning tizimini tashkil qiladi. Chunki u o‘zida nafaqat er va xotin, balki ularning bolalari hamda boshqa qarindoshlarini ham jamlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila nikoh guruhi emas, aksincha, sotsial institut bo‘lib gavdalanadi. Zero, u nasl qoldirish funksiyasi, jinslar, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va faoliyatlarini muvofiqlashtiruvchi tizimdir. Nikoh va oilaviy munosabatlar o‘z rivojlanish tarixi va taraqqiyoti bo‘yicha dastlabki qadamlaridan oq nikohning sof samimihamda poklik ramzi asosida oilaning vujudga kelishi uchun xizmat qilgan. Oila nikohga, ya’ni aniqrog‘i erkak va ayolning nikoh borasidagi ittifoqiga asoslanadi. Umum qabul qilingan ta’rifga ko‘ra, - nikoh erkak va ayolning tarixan o‘zgarib boradigan ijtimoiy munosabatlari shakli [4.5.]dir. O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat[5.4.] bo‘lib, bizning mamlakatimizda erkak va ayol o‘rtasida qonun normalari bilan belgilangan talablarga majburiy tarzda rioya qilgan holda oila qurish maqsadida tuzilgan va er-xotin o‘rtasida o‘zaro shaxsiy va mulkiy huquq-majburiyatlarini keltirib chiqaruvchi ixtiyoriy ittifoq nikoh sanaladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida tuzilgan nikohgina haqiqiy, deb tan olinadi.

Nikoh O‘zbekiston xalqining an‘anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi. O‘zbekiston xalqining an‘anaviy oilaviy qadriyatları deganda fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarga, shu jumladan Oila kodeksiga zid bo‘limgan an‘analari tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha fuqarolarning an‘anaviy oilaviy qadriyatlarini hurmat qilishi e’tirof etiladi. Davlat oilanening to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.

Shuning uchun oila instituti bir qator ijtimoiy fanlarning tadqiqot ob‘ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Taniqli o‘zbek olimi Sultonmurod Olimning ta’kidlashicha, “inson juft qilib yaratilgan. Hozirgi tushunchadagi oila madaniyatiga erishilguniga qadar esa bashariyat ko‘p-ko‘p davrlarni bosib o‘tgan. Odam jamiyatdan ayri holda yashashi ham mumkin emas. Jamiyatning eng kichik bo‘g‘ini esa – oila. O‘zbek xalqining oila borasida yuksak madaniyati, ming-ming yillik merosi bor. Biz ana shu qadimiy va muqaddas milliy an‘analarga, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarga amal qilib yashaymiz”[6.3.].

Sotsioglarni avvalambor oilaviy xulq-atvor namunalari (oilaviy munosabatlarni muvofiqlashtirish, unda o‘rnatilgan rollar va hokazolar) qiziqtiradi. Bunday holatda oilaning shakllanish jarayoni yoshlarni bir-birining ko‘nglini olish meyorlari va standartlari, bo‘lg‘usi umr yo‘ldoshini tanlash, jinsiy xulq-atvor va kelin-kuyovlarning ota-onalarini bilan o‘zaro munosabatlarning yig‘indisi sifatida tushuniladi. Erkak va uning ayoli o‘rtasidagi munosabatlar nikoh instituti tomonidan maxsus joriy qilingan meyorlar tizimi orqali muvofiqlashtiriladi.

Shu yerda nikoh dunyoviy va diniy shaklga egaligini ta’kidlab o‘tish zarur. Dunyoviy nikoh barcha mamlakatlarda joriy qilingan bo‘lsa-da, lekin diniy nikoh ayrim jamiyatlarda, asosan klerikal tuzumga asoslangan musulmon davlatlarda, majburiy tarzda amal qilinishi qat’iy talab qilinadi. Bizning jamiyatda esa dunyoviy nikohni davlatning maxsus tashkiloti – FHDYOda rasman qayd qilish majburiy xususiyatga ega bo‘lsa, diniy nikoh ixtiyoriy hisoblanadi. Ammo, jamiyatimizda musulmonlikka da’vo qiluvchi kishilar dunyoviy nikoh bilan parallel ravishda diniy rusumdagи «nikoh» marosimiga amal qiladilar. Aynan ushbu diniy marosim milliy mentalitetning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Buning diqqatga sazovorligi shundaki, o'zbeklar hech qachon o'z farzandlarining nikoh to'ylarini diniy nikohsiz o'tkazmaganlar. Hatto, totalitar tuzumning mafkurasi – «kurashuvchan ateizm» hukmronlik qilgan yillarda ham bu diniy rasm-rusmga yashirin tarzda bo'lsa-da amal qilingan. Unga hozirda ham mamlakatimizning barcha mintaqalarida, ayniqsa, Toshkent shahri va Farg'ona vodiysi aholisi tomonidan qat'iy ravishda rioxaliga qilinamoqda.

Mamlakatimizning mustaqilligi sharoitlarida biz barcha diniy rasm-rusumlar, jumladan, diniy nikohni amalga oshirish imkoniyatlariga to'liq erishdik. Albatta, rasmiy jihatdan qaraganda, oila qurayotgan kishilarning islomiy nikohsiz ham yashashga to'liq huquqlari mavjud, biroq, ularning bunday xatti-harakati aksariyat qarindosh-urug'lari, qo'ni-qo'shnilar, do'stu birodarlari va boshqa yaqinlari tomonidan ma'qullanmaydi. Binobarin, nikohga kirishayotgan o'zbeklar musulmonchilikning boshqa ko'rsatmalari: besh vaqt namoz o'qish, jum'a namozida ishtirok etish, Ramazon ro'zasini tutish, Haj ziyoratini amalga oshirish va hokazolarga rioxaliga etadilarmi yoki yo'qmi, lekin ular bundan qat'iy nazar islomiy nikohni albatta amalga oshiradilar.

Ammo keyingi paytlarda dunyo mamlakatlarda, shuningdek, jamiyatimizda ham ko'pnikohlik (poligamiya) holati uchrab turadi. Bizga yaxshi ma'lumki, poligamiya – bu bir kishining bir nechta (4 nafargacha) umr yo'ldoshi bilan tuzgan diniy nikohidir. Hozirda poligamik nikohlar asosan Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika va Fors ko'rfazi atrofidagi davlatlar hamda islam olamining mamlakatlarda ko'proq uchraydi. Chunki bu mamlakatlarda davlat boshqaruvida dunyoviylik tamoyili amalda bo'lsa-da, ammo diniylik sifatlarining ta'siri juda yuqori darajadadir. Biroq, poligamik nikohlar ayollarning psixologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu haqida rossiyalik mutaxassis – sotsiologiya fanlari doktori T.A Gurko o'z tadqiqotlarida quyidagi muhim ilmiy ma'lumotlarni e'lon qildi. «Poligamiyaga rasmiy ravishda ruxsat etilgan mamlakatlarda erkaklar (Jazoir, Saudiya Arabiston, Birlashgan Arab Amirliklari, Misr, Quvayt, Yordaniya) odatda 4 nafar ayol bilan oila qurishi mumkin. Lekin bunday nikohdagi ayollar aksariyat hollarda monogomik nikohda turuvchi ayollardan farqi o'laroq psixologik stress (ruhiy tushkunlik), ruhiy siqilish, fobiya, adovat va hayotdan yetarlicha qoniqmaslik vaziyatlarini boshlaridan kechiradilar. Ulardagi bu holat esa bolalariga ham o'tish ehtimoli mavjud»[7.78.].

Darvoqe, ayrim hollarda bizning jamiyatda ham yashirin tarzdagi poligomik nikohlar uchrashini kuzatish mumkin. Binobarin, nikohning bunday turi dunyoviy davlat talablariga mutlaqo ziddir. Bunday nikohga ega bo'lganlar esa islam dinida unga ruxsat berilganligini ro'kach qilishadi.

Biroq, islam dini tarixiga murojaat qilsak, shunday hodisaga duch kelamizki, islam tarqalayotgan ilk davrlarda jangovar harakatlar tufayli Muhammad alayhissalomning ko'pgina safdoshlari halok bo'ldilar. Natijada halok bo'lgan erkaklarning oilasi qarovsiz qolib, yetim-esir bolalar ko'payib ketdi. Ana shunday murakkab ijtimoiy sharoitlarda musulmonlarga beva-bechora va ularning yetim qolgan farzandlarini sha'riy asosda, o'z qaramog'iga olish maqsadida beva qolgan ayollarga uylanish uchun ruxsat berildi.

Mazkur mantiqdan kelib chiqib, islam dinida poligamik nikohga da'vogar bo'layotgan erkak kishiga qat'iy talablar qo'yilgan. Jumladan, Qur'oni Karimning «Niso» surasining 3-oyatida erkak kishiga 4 nafargacha ayolga nikohlanishi mumkinligi, bunda ularga teng va adolatli munosabatda bo'lishlik buyurilmoqda. Ammo, u buning uddasidan chiqilmasa, unda 1ta nikoh bilan kifoyalanishga ko'rsatma berilgan[8.479.].

Rossiyalik sotsiolog L.Axmaddullinaning to'g'ri ta'kidlashicha, «o'ziga ikki va undan ko'p ayolni ep ko'radigan erkakdan mustahkam iqtisodiy ahvolga ega bo'lishi, qaramog'idagi barcha ayollarini birday teng ta'minlashi va ularning hech birini muhabbat va g'amho'rlikdan benasib qoldirmaslikka qodir bo'lishga mutlaq ishonchi komil bo'lishi talab qilinadi. SHuning uchun musulmon mamlakatlarda bunday oilalar juda kamchilikni tashkil qiladi, chunki har kim ham bunday mas'uliyatni o'z zimmasiga ololmaydi»[9.].

Shu yerda bir muhim va murakkab savolga duch kelamiz. Nima uchun O'rta asrlardagi Movarounnahr, keyinchalik Turkistonda hukmronlik qilgan podshohu amirlarimiz va xonlarimiz 4 nafar ayolga uylanishlaridan tashqari yana bir nechta kanizaklarga egalik qilishgan? Holbuki, bu davrlarda islam dini taraqalishining ilk davridagi murakkab, qaltis vaziyatlar mavjud bo'lmagan va natijada jinslar orasidagi tafovutlar jiddiy nomutonosiblik kasb etmagan-ku? Fikrimizcha, bu davrda yashagan hukmdorlarimiz shariat ko'rsatmalaridan o'z xudbin manfaatlarini amalga oshirish uchun foydalanishga astoydil harakat qilishgan.

Aynan shuning natijasida poligamik nikohlar xalqimiz taqdiriga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, mamlakatimiz tarixining xohlagan davrini tahlil qilsak, shunday holatga duch kelamizki,

FALSAFA

poligamik nikohlar davlat boshqaruvining ratsional tarzda amalga oshirilishiga jiddiy to'siq bo'ladijan turli xildagi fitna-fasodlarni vujudga kelishining poydevori bo'lgan. Masalan, Temuriylar davri tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, ma'lum bo'ladiki, Sohibqiron o'zidan keyin nabirasi Pirmuhammadni taxt merosi etib tayinlagandi. Lekin u saroydagi oilaviy fitnalar tufayli hayotdan bevaqt ko'z yumdi. Bu holat esa ulkan davlat boshqaruvini boshbadoqlikka olib keldi.


Yoki bo'lmasa, Xusayin Boyqaro va uning o'g'li Badiuzzamon o'tasidagi qarma-qarshiliklar, jumladan, uning o'g'li Mo'minmirzoning ayanchli o'limida, shuningdek, Zahiriddin Muhammad Boburning Shaybonixonga qarshi kurashida ota bir, ona boshqa bo'lgan ukasining unga nisbatan sotqinlik qilishi kabi noxushliklarda saroydagi kundoshlarning o'z farzandlarini taxt egasi etib tayinlashlarga yo'naltirilgan xudbin harakatlari asosiy rolni o'ynadi deyishimizga to'liq asoslar mavjud. Mazkur hodisalar keyinchalik markazlashgan davlatimizning parchalanib ketishiga o'zinинг «munosib hissasini qo'shdi».

Ammo, hozirgi davrda ham tarixiy voqealardan tegishli saboq va xulosa chiqara olmaslik natijasida jamiyatimizda ayrim kishilar tomonidan «to'qlikka sho'hlik» va «jinsiy ishtaha» tufayli poligomik nikohlar sodir bo'layotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. Bu masalada O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagi keskin va konkret fikrini ilgari surdi: «Ba'zan hayotda «ZAGS», ya'ni, Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organidan o'tmasdan turib, pul evaziga yashirinchha shar'iy nikoh o'qitish, xotin ustiga xotin olish holatlari ham, ming afsuski, uchrab turibdi. Bir paytlar hayotning o'zi rad etgan kundoshlik, qo'shxitinlik balosi qanday xunuk oqibatlarga olib kelishi barchamizni tashvishga solishi kerak»[10.86.].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur nikohga kirishayotganlar o'z xatti-harakatlarni turli bahonalar bilan asoslashga intilishi kuzatilmoqda. Lekin ularning aksariyati, fikrimizcha islom dinida bunday nikohni tuzishga qo'yilgan jiddiy talabalaridan yetarli darajada ma'lumotlarga ega emaslar yoki ularni mensimayaptilar. Oila-nikoh an'analaridagi o'zgarishlar va noqonuniy birgalikda yashash (rasmiy ro'yxatdan o'tmasdan «fuqarolik» nikohlari) va norasmiy (shar'iy) nikohlar amaliyotda an'anaviy oilalar bilan bir qatorda mavjudligini ham ko'rsatmoqda. Bunday nikohlar rasmiy statistikasi mavjud bo'limgani sababli, yolg'iz ayollardan tug'ilgan farzandlar sonini aniqlashda qo'shimcha ko'rsatkichlardan foydalanilmoqda. Yevropa davlatlarida ushbu ko'rsatkich 30-60 foiz, Rossiyada – 20 foizdan yuqori, Osiyo mamlakatarida – 2-10 foiz, O'zbekistonda – 8 foizni tashkil etadi[11.15.].

Lekin bir holatga e'tiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz. Aynan poligamik nikoh bilan bog'liq bo'lgan kishilarning ko'pchiligi uni chin dildan ma'qullamayaptilar. Mazkur fikrlarimizni amaliy tadqiqotimizning natijalari ham ko'rsatib turibdi. Ushbu tadqiqot 2023-yilning avgust-sentyabr oylarida, mamlakatimizning quyidagi mintaqalari: Toshkent shahri, Buxoro, Xorazm, Andijon, Farg'ona, Namangan va Qashqadaryo viloyatlari aholisining poligamik nikohga mansub bo'lgan turli ijtimoiy qatlamlari orasida o'tkazildi. Savollar orasida respondentlar hukmiga **“Jamiyatimizda uchrayotgan ko'pnikohlik holatiga munosabatingizni bildiring”**, degan savolni tavsiya etib, poligamik nikohga nisbatan ularning munosabatlarini aniqlashga harakat qildik. Olingan natijalar esa quyidagi diagrammada namoyon bo'ldi.

**Rasm 1. Kishilarning poligamik nikohga munosabatlari**

Natijalarga muvofiq, ko'pchilik respondentlar unga nisbatan salbiy bahoni berishdi. Ammo deyarli har uch respondentdan biri bu holatni yoqlashi ham ma'lum bo'ldi. SHuningdek, har o'nta respondentdan biri bu masalada javob berishga qiyinalishi fikrimizcha, ular ham bunday turdag'i nikohni yoqlovchilarga hamfikr ekanligiga ishora qilishi mumkin.

Mazkur savolni jinslar va hududlar orasidagi farqni aniqlash ham taddiqotimiz uchun ahamiyatlari hisoblanadi.

Jadval №1**Jinslar bo'yicha poligamik nikohga munosabatning qiyosiy tahlili**

No	Javoblar	Erkak	Ayol
1.	Ijobiy	50,4	24,1
2.	Salbiy	41,1	64,2
3.	Javob berishga qiynalaman	8,5	11,7

Jadval №2**Mintaqalar bo'yicha poligamik nikohga munosabatning qiyosiy tahlili**

No	Javoblar	Andijon	Buxoro	Namangan	Qashqadaryo	Xorazm	Farg'on'a	Toshkent
1.	Ijobiy	12,5	21,3	38,2	27,0	36,7	39,1	35,2
2.	Salbiy	80,5	55,3	46,1	67,4	51,7	52,2	53,1
3.	Javob berishga qiynalaman	7,0	23,4	15,7	5,6	11,6	8,7	11,7

Natajalarni shuni ko'rsatayaptiki, jinslar o'ttasidagi farqda erkaklarning naqd yarmi bunday nikohga ijobiy fikrini bilidirish bilan ajralib turdi. Fikrimizcha, bu holatni ularda "jinsiy ishtaha"ning "karnay otganligi" bilan izohlash mumkin. Binobarin, ushbu nikohga kirishgan erkaklar islomda ko'pnikohlikka qo'ygan talablariga mutlaqo javob berishmaydi. Har to'rt respondent ayolning poligamiyani yoqlashi esa ularning ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar oldida yolg'iz qolganliklari bilan asoslanishi mumkin. Bu holatni joylarda so'rovnomani o'tkazgan intervyuerlar aniqlashdi.

FALSAFA

Mintaqalardagi holat bo'yicha eng ijobiy munosabat farg'onalik respondentlar tomonidan ko'rsatilgan bo'lsa, keyingi "o'rinlar"ni namanganlik, xorazmlik va toshkentlik respondentlar "zabt" etishdi.


Mazkur holatning tahlilini yanada chuqurlashtirish maqsadida ijobiy va salbiy fikrlarini bildirganlardan buning sabablarini ochiqlashlarini iltimos qilib, ular hukmiga "**Agar javobingiz ijobiy bo'lsa, uning asosiy sabablari nimada? (2 tagacha javob belgilashingiz mumkin)**" va "**Salbiy munosabatingiz ikkita asosiy sabablarini ko'rsating**", deb murojaat qildik.

Ijobiy munosabat bildirganlar yolg'iz yashayotgan ayollarga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini bartaraf qilishga ko'makdosh bo'ladi, kishilarni pala-partish tarzda jinsiy munosabatga kirishishdan saqlaydi, degan ikkita asosiy sababni alohida ajratib ko'rsatdilar.

Salbiy munosabat bildirganlar orasida esa oilaviy muhitni buzadi, otaning bunday xulqi keyinchalik o'g'il farzandalar uchun salbiy ma'noda namuna bo'lishi ehtimoli paydo bo'ladi qabilidagi javoblar dominantlik qildi. Darhaqiqat, xalqimizda "Qush uyda ko'rganini qiladi" degan dono fikr mayjud. Poligamik nikohga asoslangan oilada voyaga yetgan o'g'il bolalar o'z mustaqil oilasini qurbanlarida ularda ham huddi otasi kabi poligamik oila ega bo'lishi istagi kuchayadi. So'rovda ishtirot etgan erkaklar ham aynan ushbu ikki javobni belgiladilar.

Ayollar esa masalaga ancha tanqidiy munosabatda bo'ldilar. Jumladan, farzandlarda onaga nisbatan nafrat hissini vujudga keltiradi, ikki oilani moddiy jihatdan teng ta'minlash erkak kishi salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi degan mantiqiy fikrlarni ilgari surdilar.

Albatta, ko'pnikohlik hodisasi bo'sh joyda sodir bo'lmaydi. Uni vujudga kelishida ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mayjud bo'ladi. Ushbu fikrimizni empirik jihatdan asoslash uchun respondentlar e'tiboriga "**Jamiyatimizda ko'pnikohlik holatini uchrashining asosiy ikkita sabablari ko'rsating**" degan savolni havola qildik.



Rasm 2. Ko'pnikohlik holatining uchrashi sabablari

Jinslar o'tasidagi farqlar haqida to'xtaladigan bo'lsak, erkaklar yolg'iz ayollarning og'ir iqtisodiy ahvoli, befarzandlik tufayli ajrashgan ayollarning farzandli bo'lish orzusini poligamik nikohga rozi bo'lishlarining asosiy sabablar sifatida ko'rsatgan bo'lsalar, tadqiqotda ishtirot etgan ayolarning ko'pchiligi o'ziga to'q erkaklarning boshqalardan ajralib turishini namoyish qilishni xohlashi va ayrim erkaklarning boshqa ayolni ikkinchi xotin sifatida nikohiga olishni savob amali deb tushunishini bu hodisaning vujudga kelishi sabablari sifatida talqin qilganlar.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, respondentlarga "**Ko'pnikohlik holatini kamaytirish uchun nimalarni tavsija etasiz?**" deb murojaat qildik va buning uchun eng muhim ikki takliflarini berishlarini iltimos qildik.

Ko'pnikohlik holatini kamaytirish bo'yicha tavsiyalar

No	Javoblar	% da
1.	Qur'oni karimda ko'pnikohlikka qo'yiladigan talablar juda qat'iyligi va unga har kim ham amal qila olmasligini kishilarga tushuntirish lozim.	47,0
2.	Aholimizga mamlakatimizni amirlik va xonliklarga bo'linib ketishda hukmdorlarimizga kundoshlarning katta ta'sir o'tkazgani sabab bo'lganini tushuntirish lozim.	8,6
3.	Diniy soha mutaxasislariga oilali kishilarga ikkinchi oilani barpo qilishlari uchun nikoh o'qish qonunchilikda taqiqlanganligini doimo eslatib turish lozim.	25,5
4.	OAVda diniy sohaga aloqasi bo'Imagan kishilarga islomiy nikohni o'qish tufayli javobgarlikka tortilishni ma'lum qilib borish lozim	18,9

Savollarga javob bergan erkaklar Qur'oni karimda ko'pnikohlikka qo'yiladigan talablar juda qat'iyligi va unga har kim ham amal qila olmasligini, diniy soha mutaxasislariga oilali kishilarga ikkinchi oilani barpo qilishlari uchun nikoh o'qish qonunchilikda taqiqlanganligini doimo eslatib turish lozim kishilarga tushuntirish lozim, deb munosabat bildirgan bo'lsalar, ayol-respondentlarning ko'pchiligi OAVda diniy sohaga aloqasi bo'Imagan kishilarga islomiy nikohni o'qish tufayli javobgarlikka tortilishni ma'lum qilib borish lozim, aholimizga mamlakatimizni amirlik va xonliklarga bo'linib ketishda hukmdorlarimizga kundoshlarning katta ta'sir o'tkazgani sabab bo'lganini tushuntirish lozim, degan xulosalarini ilgari surishdi.

Jamiyatimizda poligamik nikohlarning ko'payib borishi bilan birgalikda FXDYO da dunyoviy nikohni qayd qilmasdan oila qurayotganlar ham uchrab turgani tashvishli holatdir. Zero, mamlakatimizda oila qurayotganlar davlat ro'yxatidan FXDYO orqali o'tishlari lozim, ana undan keyin ihtiyyoriy tarzda diniy nikohni amalga oshirishlari mumkin. Biroq keyingi yillarda birinchisiga ham, ikkinchisiga ham rioya qilishni inkor qiluvchilar soni ko'payib ketdi. Mazkur holatni amaliy jihatdan tahlil qilish uchun so'rovda ishtirok etgan kishilarga **"Jamiyatimizda ba'zi erkak va ayollarni FXDYO (ZAGS) dan o'tmasdan, islomiy nikoh o'qitmasdan er-xotin bo'lib yashashi holatiga baho berishingizni so'rasmiz"** nomli savol bilan murojaat qildik va buning uchun eng muhim uchta javoblarini berishlarini so'radik.

Dunyoviy va diniy nikohsiz oila qurilishiga munosabat

No	Javoblar	% da
1.	Biz dunyoviy davlatda yashayapmiz, shuning uchun boshqalarga o'z e'tiqodimiz va dunyoqarashimizni singdirishga haqqimiz yo'q.	14,8
2.	Bu holat milliyligimizni saqlashga jiddiy tahdid soladi.	19,5
3.	Benikoh tug'iladigan farzandlar soni ko'payadi va bu hosiyatli emas	25,8
4.	Yosh avlod mentalitetiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.	10,4
5.	Farzandlar tarbiyasiga jiddiy zarar yetkazadi.	13,3
6.	Musulmon mamlakatlari orasida xalqimiz sha'niga va obrusiga nisbatan o'rinli e'tirozlar shakllanadi.	11,6
7.	Buyuk ajodolarimiz ruhi bezovtalanadi.	4,6

Natijalardan ma'lum bo'layaptiki, respondentlar mazkur muammoga befarq emas ekanlar. Ayniqsa, benikohlik bilan bog'liq reproduktivlik masalasi ularni ko'proq tashvishlantirayotgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, olingan ma'lumotlardan yaxshi ma'lum bo'limoqdagi, nikohsiz oila qurilishiga ayollarda erkaklarga nisbatan tanqidiy munosabat jiddiyoq ekan.

XULOSA

Mamlakatimiz sharoitlarida oila va nikoh institutlarining o'zaro mambarchas aloqalari va munosabatlari kishilar turmushining farovonlik darajasiga bevosita ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, yetib kelayotgan yosh avlodni esa ota-onasiga, yaqinlariga mehrli, rahimdillik va Vataniga sadoqatli qilib tarbiyalashda muhim ma'naviy omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

FALSAFA

2. Burova S. N. Sotsiologiya braka i semi: istoriya, teoreticheskie osnov, personalii. –Minsk: «Pravo i ekonomika». 2010.
3. Smelzer N. Sotsiologiya. Perevod. s angl. -Moskva.: «Feniks». 1994.
4. Medkov —Demografiya - M.:1986. - S.5
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: Yuridik adabiyotlar, 2023.
6. Sultonmurod Olim. Oila va jamiyat yoxud Mikrojamiyat va makrooila. –Toshkent: Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi. 2017.
7. Gurko T.A. Blagopoluchie mujchin i jençin razlichnogo brachnogo statusa: Rossiya v mejdunarodnom kontekste.// Sotsiologicheskiy журнал. 2018. Tom 24. № 1.
8. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tavsiri Hilol. –Toshkent: «Sharq». 2012. Birinchi juz.
9. <https://shkolazhizni.ru/family/articles/27948/>
10. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib, qat'iyat bilan harakat qilaylik. //Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'yat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz 1-tom. –Toshkent: «O'zbekiston». 2018.
11. Tashmuxamedova D va boshq. O'zbekistonda Zamonaviy Oila (Ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha) Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent.:“Yurist-media markazi” nashriyoti, 2019.